O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI

TASDIQLAYMAN
Toshkent davlat tibbiyot
universiteti rektori
Sh.A.Boymuradov
«____» _____ 2025 y.

Bilim sohasi: sog‘liqni saqlash

“Reabilitatsiya jarayonida umumiy va xususiy fizioterapiya usullari” mavzusida

ixtisoslashtirish kursi o‘quv dasturi

(o‘qish hajmi – 288 kredit-soat)

Qayd raqami 10091157

Toshkent – 2025

Tuzuvchilar:

Usmanxodjayeva A.A.	ToshDavTU Tibbiy reabilitatsiya, sport tibbiyoti, xalq tabobati va jismoniy tarbiya kafedrasi mudiri, t.f.d., dosent

Taqrizchilar:

Tulyaganova D.K.	Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy amaliy terapiya va tibbiy reabilitatsiya tibbiy markazi katta ilmiy xodimi, t.f.d.
Mavlyanova Z.F.	SamDTU Tibbiy reabilitatsiya, sport tibbiyoti, xalq tibbiyoti kafedrasi mudiri, t.f.d., professor

“Reabilitatsiya jarayonida umumiy va xususiy fizioterapiya usullari” mavzysi bo’yicha ixtisoslahtirish kursi o‘quv dasturi

Toshkent davlat tibbiyot universiteti markaziy uslubiy Kengashida ko‘rib chiqilgan

«_17_» dekabr 2025y., bayonnoma № __4__

“Reabilitatsiya jarayonida umumiy va xususiy fizioterapiya usullari” mavzysi bo’yicha ixtisoslahtirish kursi o‘quv dasturi

Toshkent davlat tibbiyot Universiteti Ilmiy Kengashida tasdiqlangan

«_25_» dekabr 2025y., bayonnoma № __6__

1.KIRISH

Ixtisoslashtirish kursi uquv dasturi Uzbekiston Respublikasining “Talim tug‘risida”gi qonuniga, uzluksiz talim bo‘yicha kadrlar tayyorlash Milliy dasturining talablariga, shuningdek oliy talim va Sog‘liqni saqlash vazirligining amaldagi meyoriy hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va fizioterapiya, tibbiy reabilitatsiya bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash uchun amaliy sog‘liqni saqlash ehtiyojlariga muvofiq tuzilgan.

1.1. Maqsad: “Reabilitatsiya jarayonida umumiy va xususiy fizioterapiya usullari” mavzusidagi ixtisoslashtirish kursining maqsadi — tinglovchilarda reabilitatsiya jarayonida fizioterapevtik usullarni ilmiy asoslangan, xavfsiz va individual yondashuv asosida qo‘llash bo‘yicha nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va klinik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

1.2. Vazifalar: Tinglovchilarda reabilitatsiya jarayonida fizioterapiya usullarining o‘rni, ahamiyati va ilmiy-amaliy asoslari bo‘yicha tizimli bilimlarni shakllantirish.

Umumiy va xususiy fizioterapiya usullarining ta’sir mexanizmlari, fiziologik asoslari, klinik qo‘llash imkoniyatlari hamda chegaralarini o‘rgatish.

Bemorning yoshi, jinsi, asosiy kasalligi, funksional holati, komorbid kasalliklari va reabilitatsiya salohiyatini hisobga olgan holda fizioterapevtik muolajalarni individual tanlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Elektroterapiya, magnitoterapiya, ultratovush terapiyasi, fototerapiya, termoterapiya, krioterapiya, gidroterapiya va boshqa fizioterapevtik usullarni qo‘llash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish.

Turli kasalliklar va patologik holatlarda fizioterapiya muolajalarining ko‘rsatmalari, qarshi ko‘rsatmalari hamda ehtimoliy asoratlarini aniqlash bo‘yicha klinik fikrlashni rivojlantirish.

Reabilitatsiya dasturida fizioterapiya usullarini davolash jismoniy tarbiyasi, massaj, kinezioterapiya, ergoterapiya, psixologik qo‘llab-quvvatlash va boshqa tiklovchi usullar bilan integratsiyalash tamoyillarini o‘rgatish.

Individual reabilitatsiya dasturini tuzish, fizioterapevtik muolajalar kursini rejalashtirish va ularning samaradorligini dinamik baholash ko‘nikmalarini shakllantirish.

Fizioterapiya muolajalarini xavfsizlik qoidalari, sanitariya-gigiyena talablari va amaldagi klinik me’yorlarga muvofiq tashkil etish bo‘yicha bilim va mas’uliyatni rivojlantirish.

Dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillari asosida zamonaviy fizioterapevtik texnologiyalarni tanlash va amaliyotga joriy etish bo‘yicha kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirish.

Tinglovchilarda bemor holatini kompleks baholash, davolash-reabilitatsiya natijalarini tahlil qilish va fizioterapiya jarayonini hujjatlashtirish bo‘yicha amaliy malakalarni rivojlantirish.

1.3.Talim oluvchilar kontingenti: terapiya, pediatriya, xirurgiya yunalishlari buyicha mutaxassislar (klinik ordinatura va magistratura bitiruvchilar).

1.4. Dasturning dolzarbligi

Fizioterapevtlar va reabilitolog shifokorlarini malakasi oshirish aholiga hozirgi davr talablariga mos ravishda zamonaviy, malakali sifatli tibbiy xizmat kursatishni taminlaydi.

Dasturining dolzarbligi JSST tomonidan ishlab chiqilgan “Rehabilitation 2030: Action Call” strategiyasi dunyo bo‘yicha reabilitatsiya xizmatlarini kuchaytirish, ularni sog‘liqni saqlash tizimining barcha bosqichlariga integratsiya qilish hamda aholining reabilitatsiyaga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga qaratilgan. Strategiyada reabilitatsiya xizmatlarining mavjudligi, sifati va ommabopligini oshirish asosiy ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida tibbiy reabilitatsiya, fizioterapiya va nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash tizimini modernizatsiya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Aholining surunkali kasalliklari, nogironlikka olib keluvchi holatlar, travma va nevrologik kasalliklar sonining ortib borishi zamonaviy reabilitatsiya xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojni yanada oshirmoqda. Shu bilan birga, tibbiy reabilitatsiya tizimiga innovatsion fizioterapevtik texnologiyalarni, robotlashtirilgan reabilitatsiya, telereabilitatsiya, virtual reallik hamda dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarini keng joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash, reabilitatsiya xizmatlari sifatini oshirish va zamonaviy protez-reabilitatsiya tizimini rivojlantirishga qaratilgan bir qator farmon va qarorlari mazkur yo‘nalishning strategik ahamiyatini belgilab berdi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi PQ-5217-son qarorida nogironligi bo‘lgan shaxslarga ko‘rsatilayotgan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifatini yaxshilash, zamonaviy reabilitatsiya vositalarini joriy etish hamda reabilitatsiya tizimini takomillashtirish vazifalari belgilangan.

Sog‘liqni saqlash sohasida qabul qilingan meyoriy hujjatlarni (O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, texnik reglamentlar, xalqaro va milliy standartlar, buyruqlar, tavsiyalar, terminologiya, xalqaro birliklar tizimlari (SI), amaldagi xalqaro tasniflar), shuningdek, sifat va ish faoliyatini baholash uchun hujjatlardan foydalanish imkoniyati va bemorlarga tibbiy reabilitasiya yordamini kursatish, ularning tarkibiy bulinmalari faoliyatini tahlil qilish, zamonaviy tibbiy-tashkiliy va ijtimoiy-iqtisodiy texnologiyalarning aholiga tibbiy xizmat kursatishda samaradorligini baholash uchun turli xil tibbiy tashkilotlarning tashkiliy tuzilishi, boshqaruv va xujalik faoliyati tug‘risidagi bilimlardan foydalanish, fizioterapevtik profildagi tibbiyot tashkilotlarining urta va kichik tibbiy xodimlarining mehnatini oqilona tashkil qilishni taminlash imkoniyati va tayyorligi; ularni reabilitasiya profilidagi tibbiy muassalarida utkaziladigan asosiy manipulyasiyalar va muolajalarga urgatish talab qilinmoqda.

Shuningdek, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida nogironligi bo‘lgan shaxslarni reabilitatsiya xizmatlari bilan to‘liq qamrab olish, zamonaviy protez-

ortopediya vositalari bilan ta’minlash hamda inklyuziv va qulay muhit yaratish ustuvor maqsadlardan biri sifatida qayd etilgan.

Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining nogironligi bo‘lgan shaxslarni tibbiy, ijtimoiy va kasbiy reabilitatsiya qilish tizimini yanada rivojlantirishga oid qarorlarida reabilitatsiya markazlari faoliyatini takomillashtirish, individual reabilitatsiya dasturlarini ishlab chiqish hamda sohada ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish vazifalari belgilangan.

Mazkur omillar sog‘liqni saqlash tizimida faoliyat yuritayotgan reabilitolog shifokorlar, fizioterapevtlar va boshqa mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini zamonaviy innovatsion texnologiyalar hamda xalqaro standartlar asosida muntazam takomillashtirib borishni talab etadi. Shu sababli innovatsion fizioterapiya bo‘yicha malaka oshirish modullarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish tibbiy reabilitatsiya xizmatlari samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Uzbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash tizimining va mutaxassislikning uziga xos kasbiy ehtiyojlariga qaratilgan. Dastur asosiy va eng yangi adabiyotlardan, chet el olimlarining tarjima qilingan adabiyotlaridan, milliy va jahon standartlari asosida tuzilgan meyoriy hujjatlardan, shu bilan bir qatorda, tibbiy reabilitasiya yordami doirasidagi meyoriy hujjatlar asosida tuzildi.:

1.5. Dastur xajmi. Hozirgi vaqtda terapiya, pediatriya, xirurgiya yo‘nalishlari bo‘yicha mutaxassislari uchun “Reabilitatsiya jarayonida umumiy va xususiy fizioterapiya usullari” moduli buyicha ixtisoslashtirish kursi davomiyligi 2 oy bulib (288 kredit-soat), bu vaqtda shifokor sog‘liqni saqlashning fizioterapiya va tibbiy reabilitasiyasida ishlash uchun kerak bulgan zamonaviy bilim va kunikmalarni egallaydi.

1.6. Uqish shakli: “Reabilitasiya jarayonida umumiy va xususiy fizioterapiya usullari” moduli buyicha ixtisoslashtirish kursi ishdan tuliq ajralgan holda utkazilib, ilg‘or pedagogik va innovasion-interfaol talim texnologiyalarini yordamida amalga oshiriladi.

1.7. Mashg‘ulotlarni utish tartibi: kuniga 6 kredit-soat, xaftasiga 36 kredit-soatdan, 8.30 dan 13.30 gacha, 45 daqiqalik tushlik tanaffus va xar 2 akademik soatli (80 daqiqa) mashg‘ulotdan sung 10 daqiqalik tanaffus. Dasturning umumiy davomiyligi – 288 kredit-soat (8 xafta).

1.8. Malaka oshirishdan sung beriladigan xujjat. “Reabilitasiya jarayonida umumiy va xususiy fizioterapiya usullari” moduli buyicha ixtisoslashtirish kursini tugatib, yakuniy imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirgandan sung, unga tegishli namunadagi sertifikat\guvohnoma topshiriladi.

2. REJALASHTIRILAYOTGAN TALIM NATIJALARI

2.1. “Reabilitasiya jarayonida umumiy va xususiy fizioterapiya usullari” moduli buyicha ixtisoslashtirish kursi dasturini egallash natijasida takomillashtirilishi (yangilanishi) lozim bulgan kasbiy kompetensiyalar ushbu mutaxassislikning malakaviy xarakteristikasiga mos ravishda amalga oshiriladi.

Umumiy kompetensiyalar: hamkasblar, hamshiralar va kichik tibbiy xodimlar, bemorlar va qarindoshlar bilan muloqotda tibbiy faoliyatning axloqiy va deontologik jihatlarini amalga oshirishga tayyorligi va amalga oshirishi;

intizomiy, mamuriy, fuqarolik, jinoiy javobgarlikni amalga oshirayotganda tibbiy xatolarning oldini olish buyicha uz faoliyati natijalarini tahlil qilish tayyorligi va amalga oshirishi;

surov utkazish, jismoniy kurikdan utkazish, klinik tekshirish, bemorlarni zamonaviy laboratoriya va instrumental tadqiqotlar natijalarini utkazish va izohlash, ambulator va stasionar bemorlarga tibbiy kartani yozish xoxshi va amalga oshirishi;

klinik sindromlarni patofiziologik tahlilini utkazish, bemorlarda ularning yoshi va jinsini hisobga olgan holda tashxis quyish, davolash, reabilitasiya va profilaktika usullarini asoslashga tayyorligi va amalga oshirishi kerak;

bemorlar bilan ishlashda foydalaniladigan tibbiy va texnik jihozlar bilan ishlash, shaxsiy kompyuter texnologiyalari, turli manbalardan malumot olish, global kompyuter tarmoqlarida malumotlar bilan ishlash imkoniyati va istagi; kasbiy muammolarni hal qilishda zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan foydalanish.

Kasbiy kompetensiyalar: davolash va reabilitasiya bosqichida bemorlarga tashxisga muvofiq etarli (fizioterapevtik) davolanishni buyurish, reabilitantlarning uzgaruvchan ehtiyojlarini baholash, prognoz qilish va monitoring qilish, reabilitasiya xizmatlarini etkazib beruvchilar va istemolchilar urtasida samarali hamkorlikni tashkil etish, reabilitasiya infra tuzilmasi va undan reabilitasiya maqsadlarida foydalanish imkoniyatini bilish, reabilitasiya dasturlarining samaradorligi va sifatini nazorat qilish imkoniyati; uz faoliyatini jamiyatda qabul qilingan manaviy-xuquqiy meyorlarga kura yuritish, konfidensial malumotlar bilan ishlashda shifokorlik etikasi, qonunlar, meyoriy-xuquqiy talablarga rioya qilish, shifokorlik sirini saqlash.

“Reabilitasiya jarayonida umumiy va xususiy fizioterapiya usullari” moduli buyicha ixtisoslashtirish dasturida tahsil olish davomida olingan malumotlar asosida aholining salomatligini saqlash, davolash-profilaktika chora-tadbirlarini rejalashtirish va utkazish, asoratlarni oldini olish, kasalliklarga olib keluvchi xavf omillarini aniqlash va ularni modifikasiyalash, aholida uz salomatligini saqlash, sog‘lom turmush tarzi va sog‘lom oilani shakllantirish buyicha sanitariya-targ‘ibot ishlarini olib borish.

3. DASTUR MAZMUNI

3.1. **“Reabilitasiya jarayonida umumiy va xususiy fizioterapiya usullari”** mavzusida ixtisoslashtirish kursi uquv rejasi (3a-ilova)

3a-ilova

Reabilitasiya jarayonida umumiy va xususiy fizioterapiya usullari ixtisoslashtirish kursi
O’QUV rejasi

№	Modul, bo‘lim va mavzular nomi	Kredit	Auditoriya mashg‘ulotlari				Attesta-tsiya
			Ma’ruza	Amaliy yo‘nalishdagi mashg‘ulotlar			
				Amaliy mashg‘ulot	Simulyatsion o‘quv	Seminar	
I	**MODUL: Umumiy fizioterapiyaning nazariy asoslari**						
1.1	Fizioterapiyaning fan sifatida shakllanish bosqichlari va tibbiy reabilitatsiya tizimida tutgan metodologik o‘rni	6	2			4	
1.2	Dalillarga asoslangan fizioterapiya tamoyillari, fizik omillarning organizmga ta’sir mexanizmlari hamda xavfsizlik va qarshi ko‘rsatmalar asoslari	6				6	
1.3	Elektroterapiya usullari: doimiy va impulsli toklar bilan davolash	6	2	2		2	
1.4	Interferentsion toklar, diadinamoterapiya, amplipulsterapiya, transkutan elektroneyrostimulatsiya (TENS) va elektromiostimulatsiya (EMS) texnologiyalari	6		2		4	

1.5	Fototerapiya	6	2	2		2	
1.6	Mexanoterapevtik fizik omillar	6		3		3	
1.7	Magnitoterapiya	6	2			4	
1.8	Termoterapiya va krioterapiya	6		2		4	
1.9	Gidroterapiya va balneoterapiya	6	2				4
	Jami	**54**	**10**	**11**		**29**	**4**
II	**MODUL: Xususiy fizioterapiya — klinik yo‘nalishlar bo‘yicha differentsial davolash asoslari**						
2.1	Travmatologiya va ortopediyada fizioterapiya	8	2	4		2	
2.2	Sport tibbiyotida fizioterapiya	6	2	2		2	
2.3	Nevrologik bemorlarda differentsial fizioterapevtik yondashuvlar va sindromal-patogenetik tanlov tamoyillari	8	2	2		4	
2.4	Pediatriyada fizik omillarni qo‘llash xususiyatlari	6		2		3	1
2.5	Akusherlik-ginekologiya hamda urologik-andrologik amaliyotda fizioterapiya	6	2	2		2	
2.6	Onkologik bemorlarda fizioterapiya usullari	6				5	1

2.7	Ichki kasalliklarda xususiy fizioterapiya: yurak-qon tomir, nafas olish va ovqat hazm qilish tizimi kasalliklarida qo‘llash tamoyillari	8		2		6	
2.8	Xususiy fizioterapiyada individual davolash dasturini tuzish: ko‘rsatmalar, qarshi ko‘rsatmalar, dozalash va samaradorlikni baholash	6				4	2
	Jami	**54**	**8**	**14**		**28**	**4**
III	**MODUL:** Reabilitatsiyada innovatsion texnologiyalar va raqamli sog‘liqni saqlash yondashuvlari						
3.1	Virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR), sun’iy intellekt (AI) hamda telemeditsina-telereabilitatsiya texnologiyalarini klinik amaliyotga joriy etish	6	2			4	
3.2	Biofeedback (biologik teskari aloqa) va neyrointerfeys tizimlari: nazariy asoslari hamda neyrologik va ortopedik reabilitatsiyadagi klinik dasturlari	6		3		3	
3.3	Robotlashtirilgan reabilitatsiya: ekzoskeletlar, lokomotor trenajyorlar va mexatron qo‘l-oyoq tizimlari bilan funksional tiklash	6		3		2	1

	Jami	**18**	**2**	**6**		**9**	**1**
IV	**MODUL: Kardioreabilitatsiya**						
4.1	Yurak ishemik kasalligi va miokard infarktidan keyingi reabilitatsiya	12	2	4		6	
4.2	Arterial gipertenziya va surunkali yurak yetishmovchiligida reabilitatsiya	6		4		1	1
	Jami	**18**	**2**	**8**		**7**	**1**
V	**MODUL:** Pulmoreabilitatsiya						
5.1	Surunkali obstruktiv o‘pka kasalligi SOPK va bronxial astmada pulmonologik reabilitatsiya		2	8		8	
5.2	**Jami**	**18**	**2**	**8**		**8**	
VI	**MODUL: Revmatologiyada reabilitatsiya**						
6.1	Revmatologik kasalliklarda tibbiy reabilitatsiyaning nazariy asoslari va zamonaviy yondashuvlari	6				6	
6.2	Bo‘g‘im kontrakturalari, mushak zaifligi va harakat cheklanishida reabilitatsion choralar	6	2	2		2	
6.3	Osteoartritda reabilitatsion yondashuvlar: harakat faolligi, vazn nazorati va og‘riqni kamaytirish usullari	6		3		2	1

6.4	**Jami**	**18**	**2**	**5**		**10**	**1**
	MODUL: Nevroreabilitatsiya						
VII	Neyroreabilitatsiyaning nazariy asoslari, maqsadi va zamonaviy tamoyillari	6				6	
7.1	Markaziy asab tizimi kasalliklari va shikastlanishlarida reabilitatsiya: insult, bosh miya va orqa miya jarohatlari	6	2	2		2	
7.2	Neyroreabilitatsiyada funksional baholash, harakat buzilishlari va kognitiv-emotsional holatni tiklash usullari	6		3		3	
7.3	Neyroreabilitatsiyada individual reabilitatsiya dasturi, multidisiplinar yondashuv va samaradorlikni baholash	6				5	1
	Jami	**24**	**2**	**5**		**16**	**1**
VIII	**MODUL: Jismoniy reabilitatsiya**						
8.1	Davolovchi jismoniy mashqlar nazariy asoslari	6	2			4	
8.2	Jismoniy reabilitatsiyaning nazariy asoslari, maqsadi va asosiy tamoyillari Ergoterapiya nazariy asoslari	6		6			

8.3	Turli kasalliklar va funksional buzilishlarda jismoniy mashqlar, kinezioterapiya va individual reabilitatsiya dasturlarini qo‘llash	6	2			4	
	Jami	**18**	**4**	**6**		**8**	
IX	**MODUL: Travmatologiya va jarrohlikda reabilitatsiya**						
9.1	Travmatologiya va jarrohlikda reabilitatsiyaning nazariy asoslari, maqsadi va zamonaviy tamoyillari	6	2			4	
9.2	Suyak sinishlari, bo‘g‘im shikastlanishlari va yumshoq to‘qima jarohatlaridan keyingi reabilitatsiya	6		2		4	
9.3	Jarrohlik amaliyotidan keyingi bemorlarni reabilitatsiya qilish: erta faollashtirish, asoratlarning oldini olish va funksional tiklanish	6	2	2		2	
9.4	Travmatologik va jarrohlik bemorlar uchun individual reabilitatsiya dasturini tuzish, samaradorlikni baholash va dinamik kuzatuv	6		2		3	1
	Jami	**24**	**4**	**6**		**13**	**1**

X	**MODUL: Xalqaro funksionallik, hayot faoliyati cheklanishi va salomatlik tasnifi — XFK / ICF (International Classification of Functioning, Disability and Health) reabilitatsiya amaliyotida**		2	2		2	
10.1	ICF kontseptsiyasi, shakllanish tarixi, biopsixososial model va xalqaro tibbiy ahamiyati			4		2	
10.2	ICF asosida individual reabilitatsiya rejasini tuzish, monitoringi va natijalarni baholash texnologiyasi			2		4	
	Jami	**18**	**2**	**8**		**8**	
XI	**MODUL: Pediatriyada reabilitatsiya**						
11.1	Pediatriyada reabilitatsiyaning umumiy tamoyillari va bolalarda fizik omillarni qo‘llashning yoshga oid xususiyatlari	6	2			4	
11.2	Bolalar tserebral falaji (BTsF), perinatal entsefalopatiya va boshqa bolalar nevrologik kasalliklarida reabilitatsiya	6		5			1
	Jami	**12**	**2**	**5**		**4**	1

XII	**MODUL: Reabilitatsiyada funksional testlar va baholash shkalalari**	12					
12.1	Reabilitatsiyada baholash testlari	6	2			4	
12.2	Reabilitatsiya samaradorligini baholashda klinik shkalalar	6		6			
	JAMI	**12**	**2**	**6**		**4**	
	UMUMIY KREDITLR	**288**	**42**	**232**			**14**

1-MODUL. Umumiy fizioterapiyaning nazariy asoslari

Mazkur modul fizioterapiyaning nazariy va metodologik asoslari, fizik omillarning organizmga ta’sir mexanizmlari hamda zamonaviy tibbiy reabilitatsiya tizimidagi o‘rnini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, tinglovchilarda dalillarga asoslangan fizioterapevtik usullarni klinik amaliyotda xavfsiz va samarali qo‘llash bo‘yicha kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishni nazarda tutadi.

1.1. Fizioterapiyaning fan sifatida shakllanish bosqichlari, tibbiy reabilitatsiya tizimidagi metodologik o‘rni hamda multidissiplinar yondashuvdagi ahamiyati o‘rganiladi.

1.2. Dalillarga asoslangan fizioterapiya tamoyillari, fizik omillarning fiziologik va biofizik ta’sir mexanizmlari, xavfsizlik qoidalari va qarshi ko‘rsatmalar tizimi ko‘rib chiqiladi.

1.3. Galvanizatsiya, dorivor elektroforez, doimiy va impulsli toklar bilan davolash usullarining nazariy asoslari va klinik qo‘llanilishi o‘rganiladi.

1.4. Interferentsion toklar, diadinamoterapiya, amplipulsterapiya, TENS va EMS texnologiyalarining og‘riqni kamaytirish hamda mushak faoliyatini tiklashdagi o‘rni yoritiladi.

1.5. Fototerapiya usullari: ultrabinafsha, infraqizil, polikromatik nurlanish, lazeroterapiya va selektiv xromoterapiyaning biologik ta’siri hamda klinik samaradorligi tahlil qilinadi.

1.6. Ultratovush terapiyasi, fonoforez, shockwave terapiya, vibro- va pressoterapiyaning mushak-skelet tizimi kasalliklaridagi qo‘llanilishi o‘rganiladi.

1.7. Magnitoterapiyaning biologik ta’sir mexanizmlari, past va yuqori chastotali magnit maydonlarning klinik amaliyotdagi qo‘llanilishi ko‘rib chiqiladi.

1.8. Termoterapiya va krioterapiyaning fiziologik asoslari, parafino- va ozokeritoterapiya, infraqizil issiqlik terapiyasi hamda lokal va umumiy krioterapiya usullari o‘rganiladi.

1.9. Gidroterapiya va balneoterapiya: shifobaxsh vannalar, terapevtik dushlar, suvosti massaji, gidrokinezoterapiya va mineral suvlar bilan davolash usullari yoritiladi.

2-MODUL. Xususiy fizioterapiya — klinik yo‘nalishlar bo‘yicha differentsial davolash asoslari

Mazkur modul turli klinik yo‘nalishlarda fizioterapevtik usullarni differensial va patogenetik asosda qo‘llash tamoyillarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, tinglovchilarda bemorning klinik holati, yoshi va asosiy kasallik xususiyatidan kelib chiqib individual fizioterapevtik dasturlarni shakllantirish bo‘yicha kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishni nazarda tutadi.

2.1. Travmatologiya va ortopediyada fizioterapevtik tadbirlar, tayanch-harakat tizimi patologiyalarida fizik omillarni qo‘llash texnologiyalari, og‘riqni kamaytirish, regeneratsiyani tezlashtirish va funksional tiklanishni yaxshilash usullari o‘rganiladi.

2.2. Sport tibbiyotida fizioterapiyaning o‘rni, sport jarohatlarining profilaktikasi, yuqori malakali sportchilarni kompleks reabilitatsiya qilish hamda mushak-funksional tiklanish jarayonlarini optimallashtirish tamoyillari ko‘rib chiqiladi.

2.3. Nevrologik bemorlarda differensial fizioterapevtik yondashuvlar, sindromal-patogenetik tanlov prinsiplari hamda markaziy va periferik nerv tizimi kasalliklarida fizik omillarni qo‘llash xususiyatlari yoritiladi.

2.4. Bolalarda yoshga mos fizioterapevtik usullarni qo‘llash, organizmning anatomik-fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda fizik omillarni xavfsiz va samarali tanlash tamoyillari o‘rganiladi.

2.5.Akusherlik-ginekologiya hamda urologik-andrologik amaliyotda fizioterapevtik usullarning patogenetik asoslari, yallig‘lanish, surunkali og‘riq va funksional buzilishlarda qo‘llanilishi ko‘rib chiqiladi.

2.6. Onkologik bemorlarda fizioterapiyaning klinik xususiyatlari, qo‘llash chegaralari, xavfsizlik mezonlari hamda reabilitatsiya jarayonida fizik omillardan ehtiyotkorlik bilan foydalanish tamoyillari yoritiladi.

3-MODUL. Reabilitatsiyada innovatsion texnologiyalar va raqamli sog‘liqni saqlash yondashuvlari

Mazkur modul zamonaviy reabilitatsiya amaliyotida raqamli tibbiyot va innovatsion texnologiyalarni integratsiya qilish, klinik jarayonlarni optimallashtirish hamda bemorlarning funksional tiklanishini tezlashtirishga qaratilgan bo‘lib, tinglovchilarda yuqori texnologiyali reabilitatsion yondashuvlarni asosli va xavfsiz qo‘llash bo‘yicha kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishni nazarda tutadi.

3.1. Virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR), sun’iy intellekt (AI) hamda telemeditsina va telereabilitatsiya texnologiyalarining klinik amaliyotga joriy etilishi, diagnostika va reabilitatsiya jarayonlarini raqamlashtirish hamda bemor monitoringini masofadan boshqarish tamoyillari o‘rganiladi.

3.2. Biofeedback (biologik teskari aloqa) va neyrointerfeys tizimlarining nazariy asoslari, nerv-mushak boshqaruv mexanizmlariga ta’siri hamda nevrologik va ortopedik reabilitatsiyada qo‘llanilishining klinik samaradorligi tahlil qilinadi.

3.3. Robotlashtirilgan reabilitatsiya texnologiyalari: ekzoskeletlar, lokomotor trenajyorlar va mexatron qo‘l-oyoq tizimlari yordamida funksional tiklash jarayonlari,

motor reabilitatsiyani optimallashtirish hamda bemorning mustaqil harakat funksiyasini tiklashdagi roli o‘rganiladi.

4-MODUL. Kardioreabilitatsiya

Mazkur modul yurak-qon tomir tizimi kasalliklarida reabilitatsiyaning zamonaviy yondashuvlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, yurak ishemik kasalligi, miokard infarktidan keyingi holatlar, arterial gipertenziya va surunkali yurak yetishmovchiligi bo‘lgan bemorlarda funksional tiklanish, asoratlarning oldini olish hamda hayot sifatini yaxshilash bo‘yicha kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishni nazarda tutadi.

4.1. Yurak ishemik kasalligi va miokard infarktidan keyingi reabilitatsiya bosqichlari, xavf stratifikatsiyasi, jismoniy faollikni bosqichma-bosqich tiklash, kardial monitoring hamda ikkilamchi profilaktika tamoyillari o‘rganiladi.

4.2. Arterial gipertenziyada reabilitatsiya yondashuvlari, hayot tarzi modifikatsiyasi, jismoniy mashqlar terapiyasi, stressni boshqarish va vegetativ nerv tizimi balansini tiklash usullari ko‘rib chiqiladi.

4.3. Surunkali yurak yetishmovchiligida reabilitatsiya strategiyalari, funksional sinfga moslashtirilgan jismoniy yuklamalar, nafas mashqlari, suyuqlik balansini nazorat qilish hamda klinik monitoring tamoyillari yoritiladi.

5-MODUL. Pulmoreabilitatsiya

Mazkur modul nafas tizimi kasalliklarida kompleks reabilitatsiya yondashuvlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, surunkali obstruktiv o‘pka kasalligi (SOPK), bronxial astma, post-COVID sindromi va surunkali nafas yetishmovchiligi bo‘lgan bemorlarda nafas funksiyasini yaxshilash, jismoniy chidamlilikni oshirish hamda hayot sifatini tiklash bo‘yicha kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishni nazarda tutadi.

5.1. Surunkali obstruktiv o‘pka kasalligi (SOPK) va bronxial astmada pulmonologik reabilitatsiya tamoyillari, nafas mashqlari, bronxial drenaj texnikalari, jismoniy mashqlar terapiyasi hamda simptomlarni nazorat qilish usullari o‘rganiladi.

5.3. Surunkali nafas yetishmovchiligida reabilitatsiya tamoyillari, kislorod terapiyasi, ventilatsion qo‘llab-quvvatlash usullari, nafas mushaklarini mustahkamlash hamda bemor monitoringi va xavfsizlik mezonlari yoritiladi.

6-MODUL. Revmatologiyada reabilitatsiya — tayanch-harakat tizimi va biriktiruvchi to‘qima kasalliklarida kompleks fizioterapevtik yondashuv

Mazkur modul revmatologik kasalliklarda kompleks reabilitatsiya tamoyillarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, revmatoid va degenerativ bo‘g‘im kasalliklari, sistem biriktiruvchi to‘qima patologiyalari hamda surunkali og‘riq sindromlarida fizioterapevtik yondashuvlarni dalillarga asoslangan tibbiyot prinsiplari asosida qo‘llash bo‘yicha kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishni nazarda tutadi.

6.1. Revmatoid artrit va seronegativ spondiloartritlarda kompleks reabilitatsiya, yallig‘lanish faolligini nazorat qilish, bo‘g‘im funksiyasini saqlash, og‘riqni kamaytirish hamda harakat amplitudasini tiklash strategiyalari o‘rganiladi.

6.2. Osteoartroz va degenerativ-distrofik bo‘g‘im kasalliklarida fizik omillar bilan davolash, og‘riq sindromini kamaytirish, xaftaga metabolizmini qo‘llab-quvvatlash va funksional tiklanishni optimallashtirish usullari ko‘rib chiqiladi.
6.3. Sistematik qizil bo‘richa va boshqa biriktiruvchi to‘qimaning sistem kasalliklarida reabilitatsiya tamoyillari, organ-tizim shikastlanishini hisobga olgan holda individual yondashuv, xavfsiz fizik omillarni tanlash va asoratlar profilaktikasi yoritiladi.
6.4. Fibromiyalgiya va miofassial og‘riq sindromida fizik omillar bilan davolash, og‘riq sezgirligini modulyatsiya qilish, mushak spazmini kamaytirish va psixofunksional holatni yaxshilashga qaratilgan reabilitatsion yondashuvlar o‘rganiladi.

7-MODUL. Neyroreabilitatsiya

Mazkur modul markaziy va periferik asab tizimi kasalliklarida kompleks reabilitatsiya yondashuvlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, nevrologik defitsitlarni kamaytirish, funksional tiklanishni optimallashtirish hamda bemorlarning mustaqil hayot faoliyatini qayta tiklash bo‘yicha dalillarga asoslangan fizioterapevtik strategiyalarni qo‘llash kompetensiyalarini shakllantirishni nazarda tutadi.
7.1. Markaziy asab tizimi kasalliklarida reabilitatsiya: o‘tkir miya qon aylanishi buzilishi (insult), kraniyoserebral jarohatlar va demielinizatsion kasalliklarda motor, kognitiv va funksional tiklanish jarayonlari, erta reabilitatsiya tamoyillari hamda asoratlarning oldini olish strategiyalari o‘rganiladi.
7.2. Periferik asab tizimi kasalliklarida reabilitatsiya: radikulopatiyalar, polineyropatiyalar, pleksopatiyalar va tunnel sindromlarida nerv o‘tkazuvchanligini tiklash, og‘riqni kamaytirish, mushak atrofiyasining oldini olish hamda funksional reabilitatsiya usullari ko‘rib chiqiladi.

8-MODUL. Jismoniy reabilitatsiya

Mazkur modul jismoniy reabilitatsiyaning nazariy va amaliy asoslarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, davolovchi jismoniy mashqlar, tibbiy massaj, kinezioterapiya va ergoterapiya orqali bemorlarning funksional holatini tiklash, mehnat qobiliyatini yaxshilash hamda hayot sifatini oshirish bo‘yicha kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishni nazarda tutadi.
8.1. Davolovchi jismoniy mashqlar (LFK)ning nazariy asoslari, organizmning adaptatsion javoblari, mushak-skelet va yurak-qon tomir tizimlariga ta’siri hamda reabilitatsiya jarayonidagi o‘rni o‘rganiladi.
8.2. Tibbiy massajning klassik, segmentar-refleks, periostal va sport turlari, ularning texnikasi, ko‘rsatmalari va qarshi ko‘rsatmalari hamda fiziologik ta’sir mexanizmlari ko‘rib chiqiladi.
8.3. Kinezioterapiya va funksional terapiyaning zamonaviy konsepsiyalari: PNF, Bobath, Vojta va Feldenkrayz yondashuvlari asosida motor nazoratni tiklash va harakat funksiyalarini optimallashtirish tamoyillari o‘rganiladi.
8.4. Ergoterapiyaning nazariy asoslari, bemorlarni kundalik hayot faoliyatiga moslashtirish, mehnat va ijtimoiy reintegratsiya jarayonlaridagi roli yoritiladi.

9-MODUL: Travmatologiya va jarrohlikda reabilitatsiya

Ushbu modul travma, jarrohlik aralashuvlari, ortopedik kasalliklar, kuyishlar, amputatsiyalar hamda operatsiyadan keyingi funksional cheklanishlar kuzatilgan bemorlarni kompleks reabilitatsiya qilish tamoyillarini o‘rgatishga qaratilgan. Modulning asosiy mazmuni bemorning jismoniy faolligini tiklash, og‘riqni kamaytirish, asoratlarning oldini olish, mehnat va kundalik hayot faoliyatiga qaytarish bo‘yicha zamonaviy reabilitatsion yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Modul doirasida tinglovchilar travmatologik hamda jarrohlik bemorlarida reabilitatsiya jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etish, individual reabilitatsiya dasturini tuzish, bemorning funksional holatini baholash va tiklanish dinamikasini nazorat qilish ko‘nikmalarini egallaydilar. Bunda davolovchi jismoniy tarbiya, kinezioterapiya, fizioterapiya, massaj, mexanoterapiya, ergoterapiya, nafas mashqlari, erta faollashtirish va protezlashga tayyorlash kabi usullar muhim o‘rin tutadi. Modulning dolzarbligi shundaki, travma va jarrohlikdan keyingi davrda bemor organizmida mushak kuchsizligi, bo‘g‘im harakatchanligining cheklanishi, og‘riq sindromi, tromboembolik asoratlar, nafas yetishmovchiligi, chandiqlar, kontrakturalar va psixoemotsional buzilishlar rivojlanishi mumkin. Shu sababli reabilitatsiya nafaqat tiklanish jarayonini tezlashtiradi, balki nogironlik xavfini kamaytiradi va bemorning hayot sifatini yaxshilaydi.

10-MODUL: Xalqaro funksionallik, hayot faoliyati cheklanishi va salomatlik tasnifi — XFK / ICF (International Classification of Functioning, Disability and Health) reabilitatsiya amaliyotida

Ushbu modul reabilitatsiya jarayonida bemorning holatini faqat kasallik yoki tashxis nuqtayi nazaridan emas, balki uning funksional imkoniyatlari, kundalik hayotdagi faolligi, ijtimoiy ishtiroki va atrof-muhit omillari bilan bog‘liq holda baholashga qaratilgan. XFK / ICF modeli reabilitatsiya amaliyotida bemorni kompleks baholash, individual reabilitatsiya dasturini tuzish, davolash natijalarini monitoring qilish va turli mutaxassislar o‘rtasida yagona tibbiy-reabilitatsion tilni shakllantirish imkonini beradi. Modul davomida tinglovchilar XFK / ICF tasnifining asosiy tarkibiy qismlari — organizm funksiyalari va tuzilmalari, faoliyat, ishtirok, atrof-muhit va shaxsiy omillar haqida bilimga ega bo‘ladilar. Bunda asosiy e’tibor bemorning real hayotdagi mustaqillik darajasi, harakatlanish, o‘z-o‘ziga xizmat qilish, muloqot, ta’lim, mehnat faoliyati va ijtimoiy moslashuv imkoniyatlarini baholashga qaratiladi.Modulning dolzarbligi shundaki, zamonaviy reabilitatsiya kasallikni davolash bilan cheklanmaydi. Uning asosiy vazifasi bemorning yo‘qolgan yoki cheklangan funksiyalarini tiklash, mustaqilligini oshirish, nogironlik xavfini kamaytirish va hayot sifatini yaxshilashdan iborat. Shu sababli XFK / ICF reabilitatsiyada bemorning klinik holatini funksional natijalar bilan bog‘lashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

11-MODUL: Pediatriyada reabilitatsiya

Ushbu modul bolalar va o‘smirlarda turli kasalliklar, tug‘ma yoki orttirilgan funksional buzilishlar, jarohatlar, nevrologik, ortopedik, somatik va psixoemotsional muammolardan keyin tiklanish jarayonini tashkil etishga qaratilgan. Modulning asosiy mazmuni bolaning yoshi, rivojlanish bosqichi, jismoniy va ruhiy holati, oilaviy hamda ijtimoiy muhitini hisobga olgan holda individual reabilitatsiya dasturini ishlab chiqishdan iborat.
Pediatrik reabilitatsiya kattalar reabilitatsiyasidan farq qiladi, chunki bola organizmi doimiy o‘sish va rivojlanish jarayonida bo‘ladi. Shu sababli reabilitatsiya nafaqat yo‘qolgan funksiyalarni tiklashga, balki bolaning harakat, nutq, kognitiv, ijtimoiy va psixoemotsional rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga ham yo‘naltiriladi.
Nevrologik kasalliklarda reabilitatsiya
Bolalar serebral falaji, perinatal markaziy asab tizimi shikastlanishlari, nevromushak kasalliklari, insultdan keyingi holatlar va rivojlanish kechikishlarida tiklovchi chora-tadbirlar o‘rganiladi.
Ortopedik va travmatologik reabilitatsiya
Qomat buzilishlari, skolioz, yassi oyoqlik, suyak sinishlari, bo‘g‘im kasalliklari va jarohatlardan keyingi funksional tiklanish usullari yoritiladi.
Somatik kasalliklarda reabilitatsiya
Nafas olish, yurak-qon tomir, endokrin, ovqat hazm qilish va boshqa tizim kasalliklarida bolaning jismoniy faolligini tiklash, chidamliligini oshirish va asoratlarning oldini olishga qaratilgan yondashuvlar o‘rganiladi.
Individual reabilitatsiya dasturini tuzish
Bolaning yoshi, tashxisi, rivojlanish darajasi, funksional imkoniyatlari va oilaviy sharoitidan kelib chiqib davolovchi jismoniy tarbiya, fizioterapiya, massaj, kinezioterapiya, ergoterapiya, nutq terapiyasi va psixologik yordam rejalashtiriladi. Oila va multidisiplinar jamoa bilan ishlash. Pediatr, reabilitolog, fizioterapevt, nevrolog, ortoped, psixolog, logoped, ergoterapevt va ota-onalar hamkorligida bola uchun xavfsiz va samarali reabilitatsiya muhiti yaratiladi.

12-MODUL: Reabilitatsiyada funksional testlar va baholash shkalalari

Ushbu modul reabilitatsiya jarayonida bemorning funksional holatini obyektiv baholash, tiklanish darajasini aniqlash, reabilitatsiya dasturini to‘g‘ri rejalashtirish va davolash samaradorligini monitoring qilishga qaratilgan. Modulning asosiy mazmuni turli kasalliklar va jarohatlardan keyin bemorning harakat faolligi, mushak kuchi, bo‘g‘im harakatchanligi, chidamlilik, muvozanat, yurish, o‘z-o‘ziga xizmat qilish va hayot sifati ko‘rsatkichlarini baholash usullarini o‘rganishdan iborat.

Funksional testlar va baholash shkalalari reabilitatsiyada klinik qaror qabul qilishning muhim asosidir. Ular bemorning dastlabki holatini aniqlash, reabilitatsion tashxis

qo‘yish, individual reabilitatsiya dasturini tuzish, davolash natijalarini solishtirish va dinamik kuzatuv olib borish imkonini beradi.

Modulning asosiy yo‘nalishlari: Funksional baholashning nazariy asoslari. Reabilitatsion tashxis, funksional imkoniyat, hayot faoliyati cheklanishi, reabilitatsion salohiyat va XFK / ICF tamoyillari asosida baholash mezonlari o‘rganiladi. Harakat faoliyatini baholash testlari.Yurish tezligi, muvozanat, koordinatsiya, chidamlilik, transfer va kundalik harakat faoliyatini aniqlashga qaratilgan testlar ko‘rib chiqiladi. Masalan: 6 daqiqalik yurish testi, Timed Up and Go testi, Berg Balance Scale, Tinetti testi. Mushak kuchi va bo‘g‘im harakatchanligini baholash. Manual mushak testi, dinamometriya, goniometriya, bo‘g‘im amplitudasini o‘lchash va mushak tonusini aniqlash usullari o‘rganiladi. Nevrologik va ortopedik bemorlarni baholash shkalalari Insult, bosh miya va orqa miya shikastlanishlari, bolalar serebral falaji, travma va ortopedik kasalliklarda qo‘llaniladigan funksional shkalalar tahlil qilinadi. Masalan: FIM, Barthel indeksi, Rankin shkalasi, Ashworth shkalasi, VAS og‘riq shkalasi. Kardiopulmonar funksional testlar. Nafas olish va yurak-qon tomir tizimi zaxiralarini baholash, jismoniy yuklamaga tolerantlikni aniqlash va xavfsiz mashq intensivligini belgilash usullari o‘rganiladi. Masalan: Stange testi, Genchi testi, Martine–Kushelevsky sinamasi, 6 daqiqalik yurish testi. Hayot sifati va kundalik faoliyatni baholash. Bemorning mustaqilligi, ijtimoiy faolligi, psixoemotsional holati va hayot sifati ko‘rsatkichlarini baholash shkalalari o‘rganiladi. Reabilitatsiya natijalarini monitoring qilish Dastlabki va takroriy baholash natijalarini solishtirish, individual reabilitatsiya dasturiga tuzatish kiritish va davolash samaradorligini hujjatlashtirish ko‘nikmalari shakllantiriladi.

3.2.2. Simulyasion kurs (tibbiy trening) mazmuni (agar mavjud bulsa, mavjud bulmagan holda ushbu band olib tashlanadi) (3b-ilova)

Simulyasion kurs (tibbiy trening) mazmuni

№	Simulyasiya uchun maxsus anjomlar	Kursni utkazish joyi	Shakllanadigan kasbiy ko‘nikmalar
1	Zamonaviy fizioterapevtik apparatlar	klinik bazalarda fizioterapiya va reabilitatsiya bo‘limida	fizioterapevtik muolajalarni individual tanlash; zamonaviy fizioterapiya apparatlari bilan ishlash; dalillarga asoslangan klinik qaror qabul qilish; reabilitatsiya samaradorligini monitoring qilish;

			innovatsion reabilitatsiya texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish; multidissiplinar reabilitatsiya jamoasida faoliyat olib borish kompetensiyalarini egallash.

4. DASTURNI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK TAMINOTI

4.1.O‘quv bazalari. Umumiy malaka oshirish kursi Toshkent davlat tibbiyot universiteti tibbiy reabilitatsiya, sport tibbiyoti, xalq tibbiyoti va jismoniy tarbiya kafedrasida amalga oshiriladi. Ushbu kafedraning o‘quv bazalari Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy amaliy terapiya va tibbiy reabilitatsiya markazi, Respublika nogironlarni protezlash va reabilitatsiya qilish milliy markazi, 15-Oilaviy poliklinika Shox International Hospital Reabilitatsiya markazi, U.Q.Qurbonov nomidagi Respublika bolalar ruhiy asab kasalxonasi, M-clinic “Ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi” o‘quv bazalarida amalga oshiriladi.

Har bir o‘quv bazasi o‘quv jarayoni amalga oshirish uchun kerak bo‘lgan jihozlar, hamda zamonaviy fizioapparatlar, gidro- va balneologik jihozlar, kompyuterlar, proyektor, doska, flipchatlar, kutubxonalar, klinik laboratoriya va funktsional tekshirish bo‘lim kabilar bilan ta’minlangan.

Har bir o‘quv bazasidagi auditoriyalar umumiy soni – 10 ta, mebel jihozlari, doskalar, 5 ta kompyuter, 3 ta proyektor va boshqa tashkiliy texnika bilan jihozlangan. O‘quv auditoriyalaridan tashqari, 2 ta ma’ruza zallari va 2 ta kutubxonalar bor.

4.3. Adabiyotlar ruyxati

4.3.2. Dasturda ko‘zda tutilgan modullar bo‘yicha tavsiya qilinadigan o‘quv-uslubiy hujjatlar va materiallar ro‘yxati

1. Usmanxodjayeva A.A., Sobirova G.N., Ivanova I.I./ “Reabilitologiya” fanidan elektron o’quv qo’llanma. 2025-Toshkent,190 bet. .
2. Usmanxodjayeva A.A., Sobirova G.N., Adilov Sh.K., Sharipov U.A. /Davolovchi jismoniy tarbiya va an’anaviy gimnastika usullari // Elektron Darslik // «Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi» MCHJ Toshkent – 2025, 389 – bet.
3. Usmanxodjayeva A. A., Adilov Sh.Q., Visogortseva O. N. / Fizioterapiya //Darslik
4. «Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi» MCHJ Toshkent – 2022, 275 – bet.
5. Мавлянова З.Ф. Reabilitatsiya asoslari: o‘quv qo‘llanma. — Samarqand, 2022.

6. Пономаренко Г.Н. Общая физиотерапия: учебник. — Москва: ГЭОТАР-Медиа, 2025.
7. Епифанов В.А., Разумов А.Н. Медицинская реабилитация: учебник. — Москва: ГЭОТАР-Медиа, 2023.
8. Епифанов В.А. Лечебная физическая культура: учебное пособие. — Москва: ГЭОТАР-Медиа, 2020.
9. Физическая и реабилитационная медицина: национальное руководство / под ред. Г.Н. Пономаренко. — Москва: ГЭОТАР-Медиа, 2022.
10. Ильина И.В. Медицинская реабилитация (физиотерапия): учебник для вузов. — Москва: Юрайт, 2024.
11. Санаторно-курортное лечение: национальное руководство / под ред. А.Н. Разумова, Г.Н. Пономаренко. — Москва, 2021.
12. Медицинская реабилитация в неврологии: руководство для врачей. — Москва: ГЭОТАР-Медиа, 2024.
13. Медицинская реабилитация пациентов на дому: руководство для врачей. — Москва, 2025.
14. Медицинская реабилитация при заболеваниях органов дыхания: руководство для врачей. — Москва, 2025.

4.3.3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021.
2.“Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti, 2016.
3.“Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash — yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi” Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti, 2017.
4.“Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik — har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti, 2017.
5.“Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” 4 jildlik to‘plam.
Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti, 2020.

4.3.4.Internet-resurslar

- PubMed
- Cochrane Library
- PEDro Physiotherapy Database
- Scopus
- Google Scholar
- World Physiotherapy
- American Physical Therapy Association (APTA)
- Physiopedia
- European Society of Physical and Rehabilitation Medicine
- WHO Rehabilitation Programme
- IFESS — Functional Electrical Stimulation Society
- Electrotherapy on the Web

- International Society for Medical Shockwave Treatment
- World Association for Laser Therapy
- NAALT Photobiomodulation Therapy
- XR Health
- MindMaze
- IEEE Engineering in Medicine and Biology Society
- American College of Sports Medicine
- British Journal of Sports Medicine
- LexUZ
- O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi
- TIPME klinik protokollari
- Prezident rasmiy sayti

Ilmiy xorijiy jurnallar:

1. Journal of Neurologic Physical Therapy,
2. Neurorehabilitation and Neural Repair,
3. Topics in Stroke Rehabilitation,
4. NeuroRehabilitation,
5. Journal of NeuroEngineering and Rehabilitation.
6. Physical Therapy,
7. Physiotherapy,
8. Archives of Physiotherapy,
9. Physiotherapy Research International,
10. European Journal of Physical and Rehabilitation Medicine.
11. Archives of Physical Medicine and Rehabilitation,
12. Journal of Rehabilitation Medicine,
13. Clinical Rehabilitation,
14. American Journal of Physical Medicine & Rehabilitation,
15. Annals of Physical and Rehabilitation Medicine.
16. JOSPT, Physical Therapy in Sport,
17. Journal of Sport Rehabilitation,
18. International Journal of Sports Physical Therapy,
19. BMC Sports Science, Medicine and Rehabilitation.
20. Физическая и реабилитационная медицина
21. Физическая и реабилитационная медицина
22. Восстановительная медицина, медико-социальная реабилитация
23. Вестник восстановительной медицины
24. Вопросы курортологии, физиотерапии и лечебной физической культуры
25. Физиотерапевт
26. Лечебная физкультура и спортивная медицина
27. Спортивная медицина: наука и практика
28. Медико-социальная экспертиза и реабилитация
29. Травматология и ортопедия
30. Неврология, нейропсихиатрия, психосоматика

5. YAKUNIY ATTESTASIYA: SINOV

5.1. Yakuniy attestasiyaga quyiladigan talablar

Yakuniy attestasiya - kurs yakunida mutaxassislik buyicha nazariy bilim va amaliy kunikmalarni tinglovchilar tomonidan uzlashtirish darajasini baholash usuli bulib, tinglovchi tomonidan uquv reja va dastur asosida uqitilgan modullar buyicha egallangan nazariy va amaliy bilimlar, kasbiy kompetensiya, klinik fikrlash qobiliyatini rivojlanganlik darajasi, olingan bilimlarni amaliy masalalarni hal qilishda qullash mahorati aniqlash va uqitish samaradorligini baholashni kuzda tutadi. Har bir tinglovchi tasdiqlangan uquv reja va dasturlarga muvofiq yakuniy attestasiyadan utishi shart.

Yakuniy attestasiya sinov (zachyot) bilan yakunlanadigan mavzuli malaka oshirish kurslarida sinov suhbat, test va amaliy kunikmalarni bajarish shaklida utkazilib, utish bali - 70 ball etib belgilangan.

Yakuniy attestasiya va boshqa nazorat turlarini utkazish tartibi malaka oshirish va qayta tayyorlash talim muassasasi uquv-uslubiy kengashida muhokama qilingan, tasdiqlangan va ishchi uquv dasturlarida aniq keltirilgan “Tinglovchilarning kasbiy bilim va kunikmalarini baxolash tug‘risidagi NIZOM”da kursatilgan baholash mezonlari asosida bajariladi.

Yakuniy attestasiya quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1- test sinovi;
2- amaliy kunikmani baholash;
3- yakuniy suhbat (vaziyatli masalalarni echish).

Test sinovi – malaka oshirish mutaxassisligi buyicha kafedrada ishlab chiqilgan test banki asosida utkaziladi. Test sinovi natijalari quyidagicha baholanadi: tuplangan tug‘ri javoblar hajmi umumiy test topshiriqlari ulushining 70%i va undan ortig‘ini tashkil etganda - “utdi”, 69% va undan kam natijaga erishilganda - “utmadi” deb baholanadi. Tinglovchilarning tayanch bilimlarini aniqlash va yakuniy test sinovini utkazish uchun mazkur malaka oshirish kursi uquv dasturi doirasida tuzilgan bir xil test topshiriqlari bankidan foydalaniladi. Tinglovchiga test topshiriqlari bankidan 50 tadan kam bulmagan hajmda test savollari berilishi tavsiya etiladi. Test sinovidan utgan tinglovchilar yakuniy attestasiyaning amaliy kunikmani baholash bosqichiga quyiladi.

Amaliy kunikmani egallash darajasini baholashda tibbiyot va farmasevtika kadrlari malakasini oshirish va qayta tayyorlashga quyiladigan amaldagi Davlat talabi va malaka talablari doirasida tinglovchi tomonidan amalga oshirilishi lozim kunikmalar sinovdan utkaziladi. Baholash natijalari “utdi” va “utmadi” deb belgilanadi. Amaliy kunikmalarni bajarish algoritmi buyicha biron bir qadamni notug‘ri bajargan yoki bajarmagan tinglovchi yakuniy attestasiyaning mazkur bosqichidan “utmagan” deb hisoblanadi va keyingi yakuniy suhbat bosqichiga kiritilmaydi.

Yakuniy suhbat bosqichida tinglovchiga har biri 5 ta savoldan iborat 2 ta vaziyatli masala beriladi. Vaziyatli masalalarni echish natijasi mazkur vaziyatli masalada belgilangan savollarga berilgan tug‘ri javoblar soni asosida shakllantiriladi. Nazoratning ushbu turi berilgan umumiy tug‘ri javoblar soni 7 ta (70%) va undan ortiq bulganda – “utdi”, 6 ta va undan kam bulgan hollarda – “utmadi” sifatida baholanadi.